AMIR TEMUR DAVRIDA HARBIYI-JISMONIY TARBIYA SALOXIYATI

Bekmurodov Elmurod Jovliyevich
TIPI, Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi Dotsenti v.b., PhD

https://doi.org/10.5281/zenodo.21791383

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Amir Temur davrida sarkardalar va askarlarning harbiy – jismoniy salohiyati, tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilgani haqida keltirib o'tilgan. Amir Temur tomonidan jismonan baquvvat, shijoatli, jasur, harbiy–jismoniy tayyorgarlikka ega, eng mohir, chapdastlari tanlab olinishi va ularga maosh belgilashi, ehtirom ko'rsatib, mukofatlashi bayon qilingan.

КАЛИТ СЎЗЛАР

sohibqiron, buyuk sarkarda, harbiy salohiyat, jismoniy sog'lomlik, qo'shin turi, botir, bahodir, "on'boshi", "yuzboshi", "mingboshi", sarkarda, sipohi, piyoda qo'shin, otliq qo'shin, tarixiy asarlar, shaxmat, jangchi.

ABSTRACT

This article states that during the period of Amir Temur, particular attention was paid to the military and physical potential, as well as the level of preparedness of commanders and soldiers. It is explained that Amir Temur selected the most physically strong, determined, courageous, and highly skilled individuals who possessed military and physical training, and that he assigned them sala.

KEY WORDS

KIRISH

Amir Temur davri o'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos muhim o'rin tutadi. Buyuk Sohibqiron tomonidan mamlakat ravnaqi, yurt obodonchiligi, ilm–fan, savdo–iqtisodiy, diplomatik munosabatlar, mamlakatning harbiy salohiyati borasida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida bilish, o'sha davr merosini o'rganish

yoshlarimizni barkamol inson etib shakllantirish va tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur davrida boshqa sohalar bilan bir qatorda askarlarning jismoniy sog‘lomligi, jismoniy tarbiya va sport, sog‘lom turmush tarziga e’tibor kuchli bo‘lganligini ham ko‘rish mumkin. Chunki, sport insonning jismoniy sifatlarini tarbiyalash bilan birga, uning ma’naviy kamolatiga ham kuchli ta’sir o‘tkazishini azaldan insonlar yaxshi bilishgan.

Amir Temur nafaqat buyuk davlat arbobi, kuchli sarkarda sifatida o‘zining hukmronligi davomida mamlakat obodligi, yurt tinchligi yo‘lida turli davlatlarga o‘ttiz marotabadan ortiq harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Mazkur harbiy harakatlar natijasida ulkan bir davlat barpo qiladi. Ushbu yurishlarda jismoniy jihatdan kuchli, harbiy mahoratga ega qo‘shin tashkil qilganligi g‘alabalarga olib kelgan. Amir Temur faoliyatida harbiy–jismoniy mashqlardan foydalanish eng ustivor vazifalardan biri bo‘lgan. O‘zi shaxsan amirlari, vazirlari, harbiy sarkarda va askarlarga ko‘plab harbiy mashqlarni o‘rgatgan, shogirdlar tayyorlagan.

O‘sha davrda piyoda va otda yurish hamda jang qilish jarayonlari juda murakkab bo‘lgan. Chunki bir necha kunlab tinmay yurish, jang paytida harbiy qurol–aslahalarni mohirlik bilan ishlatish, epchilik, tezlik, hushyorlik va jasurlik kerak bo‘lgan.

Amir Temur davri ko‘plab tarixiga oid manbalarda qo‘shin va askarlarning harbiy–jismoniy tayyorgarligi, piyoda va otda jang qilish, qilichbozlik va nayzabozlik, jangchilarning harbiy va jismoniy tayyorgarligi, daryo va baland togli joylardan o‘tishdagi mahoratlari haqidagi ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Amir Temur va Temuriylar davri tarixi o‘sha davrga oid manbalar – Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Muiniddin Natanziyning “Muntaxab at–tavorix”, Hofuzu Abruning “Geografiya” va “Zubdat at–tavorixi Boysung‘uriy”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fasiq Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasihiy”, Ibn Arabshohning “Ajoyib al–maqdur fi tarixi Taymur” (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari), Abdurazzoq Samarqandiyning Matla ul–sa‘dain” va “Majma‘ ul–bahrayin” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish o‘rni va ikki azim daryoning quyilish joyi”), Mirxondning yetti jildli “Ravzat ul–safo” (“Poklik bog‘i”), Xondamirning “Makorimul axloq” (“Yaxshi fazilatlar”), “Habibus siyar fi axboru afodul bashar” (“Xabarlar va bashariyat odamlaridan dilga yaqin siyratlari”) hisoblanadi. Bundan tashqari Ispaniyadan Samarqandga elchi bo‘lib kelgan Rui Gonzales de Klavixoning kundaligi ham katta ahamiyatga egadir. Yuqorida keltirib o‘tilgan manbalarda bevosita Amir Temur davlati qo‘shining harbiy–jismoniy tayyorgarligi, jangga kirish jarayonlari, kurash davrida erishgan g‘alabalari, hukmdor tomonidan qahramon sarkarda va sipohilarning mukofatlanishi berib

borilgan. Bundan tashqari shaxsan Amir Temurning janglardagi harbiy mahorati, jismoniy yetukligi, askarlarni jangga kirishlarini ruhlantira olishlari, harbiylarga nisbatan munosabati bayon qilingan.

Amir Temur davriga oid eng muhim manbalardan biri bu “Temur tuzuklari”dir.

Temur tuzuklari – Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma’lumot beruvchi tarixiy asar. “Tuzuki Temuriy”, “Tuzukoti Temur”, “Malfuzoti Temuriy” va “Voqioti Temuriy” nomlari bilan ham atalgan[1]. Asar 2 qismdan iborat bo‘lib:

Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy–siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Gruziya, va Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lgani buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur Jahongirning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o‘gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju–taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo‘sini va boshqa xususida gap boradi.

“Temur tuzuklari”da Amir Temur qo‘shini va askarlarining harbiy–jismoniy tayyorgarligi masalalariga bag‘ishlangan alohida boblari mavjud bo‘lib[1]: Unda jismonan baquvvat, shijoatli, jasur, harbiy–jismoniy tayyorgarlikka ega, jangu–jadalda suyagi qotgan erkaklarni tanlab olish, ular ichidan jang qilishda eng mohir, chapdast va bahodirlarini “o‘nboshi”, “yuzboshi”, “mingboshi” tayinlash, sipohlar va qo‘shin boshliqlariga maosh belgilash, janglarda jasorat ko‘rsatganlarga alohida ehtirom ko‘rsatib, mukofatlash bayon qilingan.

Amir Temur askarlarning harbiy–jismoniy tayyorgarligi yuqori, jang qilishda mohir bo‘lgan har birini e’tibordan chetda qoldirmagan. – “qilich chopishda o‘zini ko‘rsatgan bahodirlarni birinchi marta “o‘nboshi”, ikkinchi martada “yuzboshi”, uchunchi marotaba esa “mingboshi” qilib tayinlasinlar. Agar mingboshi qilich chopib g‘nimning bir farj (harbiy bo‘linma) lashkarini sindirsa birinchi amir etib tayinlasinlar. Birinchi amir yov lashkari safini buzib, ularni tarqatib bahodirlik ko‘rsatsa, uni ikkinchi amirlik darajasiga ko‘tarsinlar. Qaysi amir yov lashkari to‘pini buzib, ish ko‘rsatar ekan, uning ham martabasi ko‘tarilsin. Sipohilardan kimdir astoydil shamshir chopguday bo‘lsa, uning maoshini oshirsinlar”[3] deb amr

qilgan ekanlar. O‘z navbatida Amir Temur tomonidan “tuzuklarida ”askarlar har biri maxsus kiyim va qurol–aslahalari qanday bo‘lishi haqida o‘z fikrlari hamda ko‘rsatmalari bayon qilingan.

Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” ham Amir Temurning faoliyati va harbiy yurishlariga bag‘ishlangan asardir. Mazkur asarda 1381 yilda sohibqiron qo‘shinlari bilan Xuroson hududiga yurish qilib, Nishopur viloyatidagi Turshiz (hozirgi Turbati Hatdariya) qal’asiga kelib tushganligi va qal’a hokimi G‘iyosiddin Malikka agar taslim bo‘lsa barchaga omonlik berishi haqida noma yo‘llagnaligini, lekin G‘iyosiddin Malik bunga unamanganligini keltirib o‘tiladi. Natijada Amir Temur askarlariga qal’aga kiradigan suv yo‘lini bekitib, handaq qazishlarini buyurdi. Qal’a yuqorisidan ularga qarab o‘q va toshlar yog‘dirib turilsada askarlar handaqlar qazishda davom etib, manjaq toshi bilan qal’a devorlarini yiqitishar edi[4]. Qal’a ahli og‘ir ahvolga tushib qolishganidan xavotirlangan shaharning ko‘zga ko‘ringan ulamolari Amir Temurdan shafqat so‘rashadi. Sohibqiron ularni kechirimini qabul qilib, qal’ani qamal qilishni to‘xtashishga buruq bergan ekan.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida esa Amur Temur boshchiligidagi qo‘shinning Damashqqa yurishi quyidagicha keltirib o‘tilgan. – “Amir Sohinqiron ravshan ra’yi va uzoqni ko‘ra biluvchi aqli bilan bu borada chuqur o‘ylab ko‘rgach, buyurdi: farmonga binoan amirzoda Amironshoh bahodir, amirzoda Shohruh bahodir, amirzoda Sulton Husayn bahodir, amirzoda Pir Muhammad bahodir, amirzoda Xalil Sulton bahodir, katta amirlardan amir Shayx Nuriddin, amir Shoh Malik, Burunduq va Ali Sultonlar hammalari qal’aning aylanasiga muqarrar tartibda borib tushdilar. Sarkorlarni tayin qilib, naqb kavlashga va manjaniq yashashga mashg‘ul bo‘ldilar. Xandaq aylanasiga yog‘och, tosh va sovutlardan devor ko‘tardilar. Ishchilar va chog‘ qazuvchilar shunday mohirlik bilan ishga kirishdilarki, undan a’losini tasavvur qilish mumkin emas edi. Qal’a tepasidagi neft qoruralari va toshlarni qanchalik ko‘p otmasinlar hamda o‘qu novaklarni yomg‘irdek yog‘dirmasinlar, atoqli amirlar va jangovar yigitlar unga parvo qilmay, qalqonlarini boshlariga tutib ilgari yurar va kavlanadigan naqblar og‘zi qay yerda bo‘lishini tayinlab berar edilar”[6].

Yuqorida keltirib o‘tilgan asar bayonidan Amir Temur saltanatida xizmat qilayotgan sarkardalardan tortib oddiy askarlar har jihatdan kuchliligini, jismoniy jihatdan baqquvatligini, sadoqat va mardonavorlik bilan jangga kirishlarini anglash mumkin. Bu esa o‘z navbatida Sohibqiron tomonidan sarkarda va askarlarning harbiy hamda jismoniy salohiyatiga katta e’tibor bilan yondoshganligini ko‘rsatadi.

Amir Temur davlatida sarkarda va sipohilar jangda jangovarlik, bahodirlik, jang usullari harakatlarini amalga oshirishlari nazarda tutilgan jumladan: jismoniy

chiniqqanligi, baquvvatligi, qilichbozlik san‘atini yaxshi bilishi, kamondan o`q otish, nayzabozlik, ot ustida jang qilish, suvda suza bilish, turli–xil ob–havoga moslashganligi, chidamlilik, chaqqonlik, tezkorlik va sakrash, jang qilish paytidagi ruhiy tayyorgarlik, qurol yaroqlar, qo`lidagi qurollarning yaroqsiz holga kelib qolganda ham jang qilishi bilishlari lozim bo‘lgan.

Mualliflar tomonidan Sohibqiron davrida nafaqat jang usullari, jismoniy tayyorgarlik bilan qatorda sportning boshqa sohalari, ularning mohir ustalari haqida ham muhim ma’lumotlar keltirib o‘tilgan

Temuriylar davrida shaxmat o‘yini ham kuchli rivojlangan. Bu davrda shaxmat o‘yini “shatranj” deb atalgan. Ibn Arabshoh asarida o‘sha paytda qo‘llanilgan shaxmat va mashhur shaxmatchilar haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. – “Mashhur shaxmatchilardan Muhammad ibn Uqayl al–Haymiy va Zayn al–Yazdiylardir. Shu bilan birgalikda, shatranj o‘yinining allomasi faqih va hadis olimi Alouddin at–Tabriziy bo‘lgan. Shaxmatda Tabriziyga teng keladigan raqib bo‘lmagan. Tabriziyning o‘ziga xos shaxmat o‘yini, uning mansuba (kombinatsiya)lariga oid sharhi bo‘lgan”[7]. Bundan tashqari muallif Alouddin at–Tabriziy Amir Temur bilan ham katta shahmatda o‘ynaganlari haqida ham keltirib o‘tadi. Temur Allouddinga – “Go‘yo men saltanat siyosatda yagona bo‘lganim kabi sen ham shoxmot olamida tengi yo‘qsan” – degan ekan.

Ibn Arabshoh tomonidan keltirib o‘tilgan shaxmat to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z navbatida nafaqat Amir Temur davridagi shaxmat o‘yinlarining olib borilishi, o‘sha davrdagi shaxmat ustalari haqida shu bilan birgalikda Markaziy Osiyoda shaxmat tarixini o‘rganishda ham mazkur asar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Amir Temur hukmronlik qilgan davr, Sohibqironning yurt obodonligi, tinchligi, ravnaqi, jamiyat hayotining barcha sohalarida jumladan, mamlakat harbiy–jismoniy salohiyatini yuksaltirish borasida ham olib borilgan ishlar va ularning natijalari haqida ma’lumotlar beruvchi ko‘plab tarixiy asarlar yaratilgandir. Ushbu asarlar mualliflarning nuqtai nazari va Amir Temur shaxsiga nisbatan munosabatiga bir–biridan farq qiladi.

Ibn Arabshohning ikkita kitobdan iborat “Ajoyib al–maqdur fi tarixi Taymur” (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) asari muallif tomonidan o‘zi guvoh bo‘lgan, bevosita o‘zi ishtirok etgan voqealarning tasvirlanganligi bilan g‘oyat muhim tarixiy ahamiyatga egadir. Mazkur asar ikki jilddan iborat bo‘lib, birinchi jildda Sohibqironning bolaligi, Samarqand taxtini egallshidan to vafotiga qadar bo‘lib o‘tgan voqealar tasviri o‘rin olgan. Ikkinchi jildda esa Amir Temur vafotidan keyingi Temuriylar davr voqealari, toju–taxt uchun talashlar bayon qilingan. Ushbu voqealar bilan birgalikda asarning ikkinchi jildida geografik joy nomalari, ismlar ko‘rsatkichilari ham berib borilgan.

Temuriylar davrida ayniqsa Amir Temur hukumronligi davrida askarlarning jismoniy tarbiya va sport, sog‘lom turmush tarziga e‘tibor juda kuchli bo‘lgan. Bu borada Temuriylar davri yozma manbalarida anchagina dalilar bor. Jismoniy tarbiya va sportning taraqqiyotini o‘rganishda jahonga mashhur sarkarda va davlat arbobi bo‘lgan Amir Temur yaratgan saltanati hamda uning o‘ziga xos davlat boshqaruvi maktabi hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti tufayli harbiy amaliy jismoniy mashqlardan sof sport turlari kelib chiqqan, binobarin chavandozlik yoki ot sporti, qilichbozlik va boshqalar. Amir Temur o‘zi ham qilichbozlik sport turida mohir bo‘lgan. U hech tab tortmay, hatto o‘n, o‘n besh nafar dushmanga qarshi qilich solgan.

Bizning shunday buyuk ajdodlarimiz bor ekan, biz ularga munosib avlod bo`lishimiz, ularning ezgu maqsadlarga yo`naltirilgan amallarini davom ettirishimiz lozim. Zero, ajdodlarga munosib avlod bo`lish yoshlar uchun ham farz ham qarzdir. Biz aynan ular orqali vatanparvarlik hissini tuyamiz va natijada Vatanga nisbatan muhabbat paydo bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur davrida ilm–fan rivojlanadi, nafaqat ilm–fan balki barcha harbiy soha ham rivojlanib yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan. Bizlar ulug‘ bobomizdan qolgan yurtni asrab avaylashga, yurt uchun o‘z hissamizni qo‘shishga harakat qilishimiz lozim. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham – Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz biz avlodlarga qoldirgan vasiyatida muhim bir fikrga alohida urg‘u berib, – “El dardiga darmon bo‘lmoq – ezgu vazifangizdir–, deb ta‘kidlagani albatta bejiz emas[8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Темир ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент., “Қомуслар бош таҳририяти”. 1996, 19–бет.
2. Temur tuzuklari. – Toshkent., “Ochun”. 2021. 99–100 betlar.
3. Temur tuzuklari. – Toshkent., “Ochun”. 2021. 113–114 betlar.
4. Temur tuzuklari. – Toshkent., “Ochun”. 2021. 120–121 betlar.
5. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент., “Шарқ”. 1997, 95–96 бетлар.
6. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент., “Ўзбекистон”. 1996, 306–бет.
7. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал–мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). I–китоб. – Тошкент., “Меҳнат”. 1992, 58–бет.
8. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent., “O‘zbekiston”. 2017, 92–bet.